QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIKDA OVOZ VA SUKUT DIALEKTIKASI: JAHON VA O‘ZBEK NASRI KESISHMASI

Shodmonova Mahzuma Jumanazarovna
Buxoro davlat universiteti magistri
https://doi.org/10.5281/zenodo.23068899

Annotatsiya.Ushbu tezis qiyosiy adabiyotshunoslikda ovoz va sukut dialektikasi muammosiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda jahon narratologiyasining yetakchi vakillari — Gerar Jenett, Mike Bal, Shlomit Rimmon-Kenan, Gayatri Spivak va Syuzan Lanser qarashlari tanlab olingan o‘zbek va jahon nasriy asarlari misolida sinovdan o‘tkaziladi hamda ular asosida yangi integrativ metodologik yondashuv taklif etiladi. Bunda ovoz tushunchasi endi faqat “kim so‘zlaydi?” degan an’anaviy savol doirasida emas, balki kimning ovozi eshitiladi, kimniki eshitilmaydi va bunga nima sabab bo‘lishi kabi kengroq savollar asosida talqin qilinadi. Tahlil davomida tanlangan asarlarda ovoz va sukutning uchta o‘ziga xos dialektik modeli aniqlanib, ular jahon adabiyotidan olingan namunalar bilan qiyoslab ko‘riladi.

Kalit so‘zlar: qiyosiy adabiyotshunoslik, narratologiya, ovoz, sukut, hokimiyat, gender tahlili, o‘zbek nasri, jahon nasri, Jenett, Spivak, Dostoyevskiy, Stendal, Markes.

So‘nggi yillarda qiyosiy adabiyotshunoslikda ovoz masalasi tobora ko‘proq hokimiyat va gender tahlili bilan uzviy bog‘lab o‘rganilmoqda. Gayatri Spivakning “Can the Subaltern Speak?” (1988) asari ovoz muammosini siyosiy-madaniy hokimiyat masalasi darajasiga ko‘tardi. Uning chetdagi qatlam o‘z ovozi bilan gapira oladimi, degan savoli oddiy ritorik savol emas, balki butun bir nazariy paradigmani qayta ko‘rib chiqishga turtki bergan muammo edi. Spivak fikricha, chetdagi qatlamning ovozi nafaqat eshitilmaydi — u umuman eshitiladigan shaklda mavjud ham emas, chunki hokimiyat tuzilmalari uning ovozini oldindan cheklab qo‘yadi. Izoh uchun aytish joizki, “subaltern” atamasini fanga italyan faylasufi Antonio Gramshi kiritgan bo‘lib, u hokimiyat tuzilmalaridan tashqarida qolgan, ovozi eshitilmaydigan ijtimoiy qatlamni bildiradi. O‘zbek tilida bu tushunchani “chetdagi qatlam” yoki “itoatsiz qatlam” kabi so‘zlar bilan ifodalash mumkin bo‘lib, mazkur tezisda aynan “chetdagi qatlam” varianti qo‘llaniladi.

Syuzan Lanserning “Fictions of Authority” (1992) asari esa ovoz masalasini gender va hokimiyat kesishmasida tahlil qiladi. Lanser narrativ hokimiyatning uch turini — mualliflik hokimiyati, shaxsiy hokimiyat va jamoaviy hokimiyatni — ajratib ko‘rsatadi va ayol yozuvchilar ko‘pincha shaxsiy hokimiyat darajasida qolishini, chunki mualliflik hokimiyati ularga ko‘p hollarda yopiq bo‘lganini ta’kidlaydi. Ammo bu nazariyalar, asosan, G‘arb va mustamlakachilikdan keyingi ingliz tilidagi adabiyot materialida shakllangan, o‘zbek nasri esa bu nazariy muloqotda deyarli qatnashmagan, holbuki o‘zbek adabiyotida ovoz va sukut muammosi o‘ziga xos yo‘l bilan yechilgan. Aynan shu holat mavjud katta bo‘shliqni ko‘rsatadi.

O‘zbek adabiyotshunosligida ovoz va sukut dialektikasi hozirgacha izchil o‘rganilmagan: mavjud tadqiqotlar, asosan, mavzu, g‘oya va obraz tahliliga qaratilgan bo‘lib, hokimiyat nazariyasi bilan o‘zbek adabiyoti o‘rtasida metodologik ko‘prik deyarli yo‘q, sukutning faol ma’no hosil qiluvchi funksiyasi esa nazariy jihatdan hali asoslanmagan. Bu o‘rinda shuni alohida qayd etish lozimki, O‘zbekiston sovet davrida mafkuraviy nazorat ostida bo‘lgan bu hududiy mustamlakachilikdan farqli, mafkuraviy tusdagi nazorat edi, shu sababli mazkur tezisda hokimiyat nazariyasining ayrim tushunchalari o‘zbek materialida qanday yangi ma’no kasb etishi alohida ko‘rsatib beriladi.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Gerar Jenett “Narrative Discourse” (1972/1980) asarida ovozni “kim gapiradi?” degan savolga javob beruvchi markaziy kategoriya sifatida belgilaydi. Uning tushunchasida ovoz-hikoya qilish aktini kim amalga oshirayotganini ko‘rsatuvchi kategoriya bo‘lib, u voqea ichida bo‘lgan, o‘zi ishtirok etgan hodisalarni aytib beruvchi homodiyegetik hikoyachini, voqeadan tashqarida turgan, o‘zi ishtirok etmagan hodisani bayon qiluvchi geterodiyegetik hikoyachini hamda hikoya ichidagi hikoyani anglatuvchi metadiyegetik naratsiyani bir-biridan farqlaydi. Jenett uchun ovoz va fokalizatsiya bir-biri bilan uzviy bog‘liq kategoriyalar: ovoz “kim gapiradi?” degan savolga, fokalizatsiya esa “kim ko‘radi?” degan savolga javob beradi.

Mike Bal “Narratology” (1985/2017) asarida Jenett nazariyasini rivojlantirib, fokalizatsiya tushunchasini tahlil markaziga qo‘yadi. Bu yerda muhim farq shundaki, Jenett ovoz va fokalizatsiyani bir butun holda ko‘rib chiqsa, Bal ularni mustaqil kategoriya sifatida ajratadi: bitta matnda bir shaxs ko‘rishi (fokalizator), boshqa shaxs esa gapirishi (hikoyachi) mumkin. Mazkur tezis aynan Bal modeliga tayanadi, chunki u ovoz va sukut dialektikasini tahlil qilish uchun qulayroq imkoniyat beradi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, Gayatri Spivakning “Can the Subaltern Speak?” (1988) asari ovoz muammosini siyosiy-madaniy hokimiyat masalasi darajasiga ko‘taradi. Spivakning asosiy tezisi shundan iboratki, chetdagi qatlamning ovozi nafaqat eshitilmaydi, u eshitiladigan shaklda ham mavjud emas. Bu holatni “bilim zo‘ravonligi” (epistemic violence) tushunchasi orqali izohlash mumkin: hokimiyat tuzilmalari chetdagi qatlam ovozini oldindan bostiradi, ya’ni uning gapi qanday eshitilishini hokimiyatning o‘zi belgilab qo‘yadi. Boshqacha aytganda, bilim zo‘ravonligi deganda hokimiyat tuzilmalarining chetdagi qatlamga o‘z bilimini ifoda etish imkoniyatini bermasligi tushuniladi. Bu narrativ vakillik muammosining o‘ziga xos ko‘rinishi bo‘lib, Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanida Zebining ovozi aynan shu tariqa hikoyachi tomonidan vakillik qilinadi, o‘zi esa bevosita ovoz chiqarmaydi.

Syuzan Lanserning “Fictions of Authority” (1992) asari ovozni gender va hokimiyat kesishmasida tahlil qiladi [3]. Lanser narrativ hokimiyatning uch turini -hikoyachi o‘z ovozini to‘g‘ridan-to‘g‘ri bildiradigan mualliflik hokimiyatini, hikoyachi o‘z shaxsiy tajribasini bayon qiladigan shaxsiy hokimiyatni va hikoyachi jamoa nomidan so‘zlaydigan jamoaviy hokimiyatni farqlaydi. Uning kuzatishicha, ayol yozuvchilar ko‘pincha shaxsiy hokimiyat darajasida qoladilar, chunki mualliflik hokimiyati ular uchun ko‘p hollarda yopiq bo‘lgan bu sukutning gender ko‘rinishi bo‘lib, unda ayol ovozi eshitiladi, ammo mualliflik emas, shaxsiy daraja doirasida qoladi. Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romanida Robiyaning ovozi aynan shaxsiy hokimiyat darajasida eshitiladi: Robiya o‘z tajribasini bayon qiladi, biroq bu mualliflik darajasiga ko‘tarilmaydi. Bu holat Lanser modeliga to‘liq mos keladi.

Ovoz va sukut dialektikasini tushunish uchun, avvalambor, sukutning faol funksiyasini e’tirof etish zarur: sukut- ovozning yo‘qligi emas, balki uning muqobil ko‘rinishi. Bu tezisni uch nazariy yo‘nalish asosida dalillash mumkin. Spivakda sukut bostirish natijasi, ya’ni tashqi omil sifatida, Lanserda hokimiyat cheklovi natijasi, ya’ni yana tashqi omil sifatida, Jenettda esa narrativ strategiya, ya’ni ichki omil sifatida namoyon bo‘ladi. Bu uch nazariy qarash bir-birini to‘ldiradi: sukut ham tashqi (hokimiyat), ham ichki (narrativ strategiya) omillar ta’sirida yuzaga keladi. O‘zbek va jahon nasrida ikkala omil ham uchraydi va ular ko‘pincha o‘ziga xos tarzda bir-biriga qorishib ketadi.

XULOSA. Mazkur tezis qiyosiy adabiyotshunoslikda ovoz va sukut dialektikasini ilk bor izchil tarzda o‘rgandi. Tadqiqot davomida ovoz va sukutning dialektik juftlik ekanligi ya’ni sukut ovozning yo‘qligi emas, balki uning muqobil ko‘rinishi ekanligi Spivak, Lanser va Jenett nazariyalari asosida asoslab berildi. Tanlangan asarlarda esa uchta o‘ziga xos ovoz-sukut modeli aniqlandi: Cho‘lponda kuzatilgan tashqi ovoz va passiv sukut modeli, bunda hikoyachi ovozi ustun bo‘lib, sukut Spivakning narrativ vakillik tushunchasi asosida izohlanadi; Hoshimovda kuzatilgan ichki ovoz va faol sukut modeli,

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

bunda qahramon ovozi ustun bo‘lib, sukut Lanserning shaxsiy hokimiyat tushunchasi asosida faol xarakter kasb etadi; hamda Eshonqulda kuzatilgan yo‘q ovoz va siqilgan sukut modeli, bunda sukutning o‘zi ustunlik qilib, Jenettning narrativ strategiya tushunchasi asosida faol ichki jarayon sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot shuni ham ko‘rsatdiki, hokimiyat nazariyasi o‘zbek nasriga to‘liq, o‘zgarishsiz tatbiq etilmaydi, biroq uning ayrim tushunchalari — chetdagi qatlam, bilim zo‘ravonligi, shaxsiy hokimiyat — o‘zbek materialida yangicha ma’no kasb etadi. Shu bilan birga, tasavvufiy an’ana o‘zbek nasrida ovoz muammosining o‘ziga xos yechimini taklif etadi, bunday yechim esa G‘arb narratologiyasida uchramaydi. Xulosa qilib aytganda, o‘zbek nasri modelini jahon adabiyoti namunalari bilan qiyoslash mumkin bo‘lsa-da, u o‘zining mustaqil, takrorlanmas qiyofasini saqlab qoladi.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati shundan iboratki, u qiyosiy adabiyotshunoslikda yangi metodologik yondashuv yaratadi va o‘zbek nasrini xalqaro nazariy muloqot doirasiga olib kiradi, amaliy ahamiyati esa uning natijalari adabiyot darslarida, matn tahlilida va keyingi narratologik tadqiqotlarda qo‘llanilishi mumkinligi bilan belgilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Genette, G. Narrative Discourse: An Essay in Method. — Ithaca: Cornell University Press, 1980.
2. Bal, M. Narratology: Introduction to the Theory of Narrative. — Toronto: University of Toronto Press, 2017.
3. Hoshimov O‘. Ikki eshik orasi. — Toshkent: Sharq, 2012.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.